

Alisher Navoiy ilm va ma'rifat haqida

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/manaviyat/ajdodlarga-ehtirom/alisher-navoiy-ilm-va-marifar-haqida>

O'zbek xalqining ulug' mutafakkiri, ma'rifatparvari va buyuk shoiri Alisher Navoiy yoshlarni tarbiyalash ishiga alohida e'tibor berdi. U bolalarni ilm-hunarni, mehnatni sevishga undab, o'rganilgan ilm va hunarni xalq, vatan yo'lida sarf qilish zarurligini uqtirdi.

Alisher Navoiy ilm, ma'rifat haqida ajoyib fikrlarni olg'a surdi. U aql, ilm insonning eng go'zal va zaruriy fazilatlaridan biri, har bir kishining eng muhim burchi ilm olishdir, deb hisobladi. Navoiyning fikricha, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o'qish-o'rganish kerak: "Yoshligingda yig'gil bilimni, qarigach sarf qilg'il ani", degan shoirning o'zi ham juda yoshligidan ta'lim oladi, o'qishga beriladi. U yoshligidanoq ko'p she'rlarni yod bilgan. Jumladan, Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" ("Qush nutqi") asarini bolalik chog'laridayoq qayta-qayta o'qib, yod olgan. Alisher Navoiy keyinchalik maktab va maorif masalalariga katta ahamiyat berdi. U mehnatkash xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish va madrasalar qurish to'g'risida g'amxo'rlik qildi. Alisher Navoiy Astrobodda surgunda yurganida podsho Husayn Boyqaroga yozgan xatida o'g'il va qiz bolalar uchun maktablar ochishni talab qilgani, shaxsan o'zi madrasalar qurishda tashabbus ko'rsatgani buning yaqqol dalilidir. Navoiyning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. U o'zining "Ixlosiya" madrasasi yonida maktab ochib, bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun zarur sharoit yaratib, buning uchun lozim bo'lgan mablag' ajratadi. Navoiy dars beruvchini quyoshga o'xshatadi va bu quyosh o'z atrofidagi yulduzlarga nur sochadi, ya'ni hali ilmdan bexabar bo'lgan toliblarga ilm nurini sochadi, ma'rifat beradi, deydi.

Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ko'proq barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Ilm-ma'rifat, axloq-odob masalalariga doir fikrlarini esa ilmiy-falsafiy va didaktik asarlarida bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, komil ishonch bilan ilm-fanning fazilati juda katta, deb hisoblaydi.

Buyuk so'z san'atkori va mutafakkiri o'zining bir qancha asarlarida bolalar tarbiyasiga oid fikrlarini aytish bilangina kifoyalaniq qolmasdan, balki "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" kabi dostonlarining ayrim boblarini shu masalaga bag'ishlaydi. "Hayrat ul-abror" (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) falsafiy-ta'limiy dostonidir. Navoiy bu asarida o'zining falsafiy, ijtimoiy-siyosiy hamda kishilarga ta'lim va o'git berish masalalariga katta e'tibor beradi. Dostonda zolim hukmdorlarni qoralab, ikkiyuzlamachi, riyokor ruhoniylarning sir-asrorlarini keskin fosh etadi. Xususan, shoir saxiylik, odob va kamtarinlik, ota-onaga hurmat, rostgo'ylik va to'g'rilik, ilmning foydasi va kambag'al o'quvchilarning bu yo'lda chekkan azoblari haqida batafsil to'xtalib o'tadi.

"Hayrat ul-abror" asarining bir necha boblari odob-axloq va ta'lim-tarbiya masalasiga bag'ishlangan. Navoiy bu dostonning oltinchi maqolotida odob va kamtarlikni ulug'lab, ta'lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalarini bayon qilish bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Shoir dostonning bu maqolotida bola tarbiyasi, uni o'stirish, o'qitish va balog'atga yetkazish hamda bu borada ota-onalarning vazifalari haqida batafsil fikr yuritadi. Shoir yoshlarni ota-onaning xizmatini bajarishga, ularni hurmat qilishga, ularga nisbatan hamisha mehr-muhabbatli bo'lishga chaqiradi, ota-onani oy va quyosh deb ta'riflaydi:

Boshni fido ayla ato qoshig'a,

Jismni qil sadqa ano boshig'a...

Tun-kunungga aylagali nurposh,

Birisin oy angla, birisin quyosh...